

O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

HAYDAROV O‘RAL AXMADOVICH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti v.b.
professori, iqtisodiyot fanlari doktori DSc

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini joriy etish va ularni rivojlantirish masalalari raqamli transformatsiya sharoitida tahlil etilgan. Xususan, bank tizimida zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida masofaviy bank xizmatlari, mobil va internet-banking xizmatlarini kengaytirish, mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli xizmatlar sifatini oshirish hamda bank faoliyatining operatsion samaradorligini kuchaytirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, raqamli bank xizmatlarini joriy etish jarayonida yuzaga kelayotgan tashkiliy, texnologik va me‘yoriy-huquqiy muammolar, ularning sabablari hamda mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilgan mualliflik yondashuvlari va amaliy takliflar keltirilgan. Maqolada raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish orqali tijorat banklarining raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash hamda bank xizmatlari bozorida innovatsion rivojlanishga erishish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston tijorat banklari, raqamli bank xizmatlari, raqamli transformatsiya, masofaviy bank xizmatlari, mobil banking, internet-banking, bank xizmatlari bozori, bank strategiyasi, moliyaviy texnologiyalar (FinTech), mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlar, bank samaradorligi, foizli va foizsiz daromadlar

ПУТИ РАЗВИТИЯ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ УЗБЕКИСТАНА

Хайдаров Урал Ахмадович

Ташкентский государственный экономический университет временно
исполняющий обязанности профессора, доктор экономических наук (DSc)

Аннотация: в данной статье анализируются пути развития инновационных банковских услуг в условиях цифровой трансформации банковской системы. В частности, рассмотрены возможности внедрения новых банковских услуг на основе современных цифровых технологий в коммерческих банках, повышения качества обслуживания клиентов и усиления операционной эффективности банковской деятельности. Также освещаются проблемы, возникающие в процессе трансформации банковских услуг, причины их возникновения и авторские подходы и практические предложения по их устранению. Особое внимание уделяется вопросам повышения конкурентоспособности банковского сектора и укрепления финансовой устойчивости за счёт развития инновационных банковских услуг.

Ключевые слова: коммерческие банки Узбекистана, цифровые банковские услуги, цифровая трансформация, дистанционные банковские услуги, мобильный банкинг, интернет-банкинг, рынок банковских услуг, банковская стратегия, финансовые технологии (FinTech), клиентоориентированные услуги, банковская эффективность, процентные и непроцентные доходы

**WAYS TO DEVELOP THE IMPLEMENTATION OF DIGITAL BANKING
SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN****Haydarov Ural Akhmadovich**

Tashkent State University of Economics Acting
Professor, Doctor of Economics (DSc)

Abstract: this article analyzes the issues of implementing and developing digital banking services in commercial banks of Uzbekistan in the context of digital transformation. In particular, it examines the opportunities to expand remote banking services, mobile and internet banking based on modern digital technologies, improve the quality of customer-oriented digital services, and enhance the operational efficiency of banking activities. In addition, the article highlights organizational, technological, and regulatory challenges arising in the process of implementing digital banking services, their causes, as well as the author's approaches and practical recommendations for addressing these challenges. Special attention is paid to increasing the competitiveness of commercial banks, ensuring financial stability, and achieving innovative development in the banking services market through the advancement of digital banking services.

Keywords: commercial banks of Uzbekistan, digital banking services, digital transformation, remote banking services, mobile banking, internet banking, banking services market, banking strategy, financial technologies (FinTech), customer-oriented services, banking efficiency, interest and non-interest income.

Kirish.

Jahon miqyosida raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bank tizimida raqamli bank xizmatlarini joriy etish va kengaytirishni strategik zaruratga aylantirmoqda. 2025-yil boshiga kelib dunyo aholisining qariyb 68,7 foizi internetdan faol foydalanayotgani raqamli texnologiyalarning iqtisodiy va moliyaviy munosabatlardagi ahamiyati tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Zamonaviy raqamli bank platformalari orqali yiliga trillionlab AQSh dollari miqdorida moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilayotgani esa raqamli bank xizmatlarining global moliyaviy tizimdagi o'rni va salohiyatini yaqqol namoyon etadi.[1]

Mazkur global tendensiyalar O'zbekiston tijorat banklari faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, raqamli bank xizmatlarini joriy etish va ularni rivojlantirish masalasini dolzarb vazifaga aylantirmoqda. So'nggi yillarda mamlakat bank tizimida mobil banking,

internet-banking va masofaviy to'lov xizmatlari kengayib borayotgan bo'lsa-da, ushbu jarayonlar rivojlangan davlatlar tajribasi bilan solishtirganda hali yetarli darajada chuqur va tizimli tus olmagan.

Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklari uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish oddiy texnologik yangilanish emas, balki bank faoliyatining samaradorligi, raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi muhim strategik omil hisoblanadi. Sun'iy intellekt, "big data" tahlili, blokcheyn va raqamli identifikatsiya tizimlarining bank amaliyotiga tatbiq etilishi xizmatlar sifatini oshirish, mijozlarga individual yondashuvni kuchaytirish hamda operatsion xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, fintech kompaniyalari faoliyatining kengayishi banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirib, raqamli bank xizmatlarini jadal rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini joriy etishni rivojlantirish, raqamli infratuzilmani takomillashtirish hamda innovatsion texnologiyalarni bosqichma-bosqich tatbiq etish bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish va ularni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy xujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlari rasmiyligi, undagi iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlarining qiyosiy va tanqidiy tahlil qilingan. Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy usullar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik usullaridan foydalanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda global moliya bozorlarida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi bank xizmatlarini ko'rsatish va iste'mol qilish mexanizmlarida tub sifat o'zgarishlarini yuzaga keltirmoqda. Internet, mobil aloqa, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) kabi zamonaviy raqamli texnologiyalarning bank amaliyotiga joriy etilishi an'anaviy bank xizmatlari modelini

tubdan o'zgartirib, masofaviy, tezkor va mijozga yo'naltirilgan xizmatlar ulushining oshishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu jarayon O'zbekiston tijorat banklari faoliyatida ham muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilishicha, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi bank xizmatlari bozorining tarkibiy tuzilmasini o'zgartirib, xizmatlar ko'rsatishning yangi innovatsion shakllarini vujudga keltiradi. Elektron va masofaviy bank xizmatlarining kengayishi banklarning operatsion xarajatlarini kamaytirish, xizmatlar tezkorligi va qulayligini oshirish hamda moliyaviy inklyuziyani ta'minlashga xizmat qiladi. Bu holat rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O'zbekiston bank tizimi uchun ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Bank xizmatlarini raqamlashtirish bilan bog'liq risklar va ularni boshqarish masalalari xalqaro moliyaviy institutlar tadqiqotlarida ham alohida o'rin egallaydi. Xususan, Xalqaro hisob-kitoblar banki huzuridagi Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "Cross-Border Electronic Banking Issues for Bank Supervisors" hisobotlarida elektron bank xizmatlarini rivojlantirishda prudensial nazorat, axborot xavfsizligi va transchegaraviy tartibga solish mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan [2]. Ushbu yondashuvlar O'zbekiston bank tizimida raqamli xizmatlarni joriy etishda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur masalalar Xalqaro valyuta jamg'armasi hamda G10 guruhi tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda ham o'z aksini topgan bo'lib, ularda raqamli bank xizmatlari moliyaviy barqarorlik va bank tizimi samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida baholanadi [3]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bank faoliyatiga keng joriy etilishi moliyaviy xizmatlar qamrovini kengaytirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga xizmat qiladi [4].

Masofaviy bank xizmatlari tushunchasi va ularning rivojlanish bosqichlari ko'plab ilmiy ishlarda tahlil qilingan. Ilmiy manbalarda masofaviy bank xizmatlarining shakllanishi bankomatlar, telefon-banking, internet-banking va mobil-banking

texnologiyalarining rivoji bilan chambarchas bog‘liq ekani qayd etiladi. Hozirgi bosqichda esa ushbu xizmatlar smartfonlar, raqamli platformalar va ekotizimlar asosida yanada takomillashmoqda [5]. V.K. Spilnichenko masofaviy bank xizmatlarini mijozning bankka tashrif buyurmasdan, telekommunikatsiya tizimlari orqali hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi axborot xizmatlari majmui sifatida ta’riflaydi [6]. Ushbu yondashuv O‘zbekiston tijorat banklarida masofaviy xizmatlar ulushini oshirishning nazariy asoslarini belgilab beradi.

1-jadval

“Raqamli bank mahsuloti” ta’rifiga iqtisodchi olimlar ilmiy yondashuvlari

Mualliflar	Mualliflar fikrlari	Izohlar
V.S. Aksenov [7]	Elektron bank-bu telekommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda taqdim etiladigan moliyaviy xizmatlar	Muallif raqamli bank xizmatlarini ko'rsatish usuliga e'tibor qaratgan
A.P Bagaeva [8]	Internet-banking-bu bank omonatchilariga o'z hisobvaraqlari to'g'risidagi ma'lumotlarga kirish va ular bo'yicha operatsiyalarni Internet orqali amalga oshirish imkonini beruvchi masofaviy bank texnologiyasi	Muallif hisob ma'lumotlariga kirish va Internet orqali operatsiyalarni amalga oshirish, ya'ni funktsionallik yoki raqamli operatsiyalar ekanligini ta'kidlaydi
Z.K. Djafarova [9]	Elektron bank-bu naqd pul, chek yoki boshqa turdagi qog'oz hujjatlarni almashtirish orqali emas, balki elektron signallarni almashish orqali pul o'tkazmalarini amalga oshiradigan bank xizmatining shakli	Muallif mablag'larni elektron signallar orqali o'tkazish va qog'oz hujjatlaridan voz kechishga e'tibor qaratadi

V.E. Kosarev [10]	Neobank (yunoncha “yosh bank”) - bu har qanday smartfon va shaxsiy kompyuterlardan onlayn xizmat ko'rsatadigan, haqiqiy filiallarsiz yaratilgan va ishlaydigan modernizatsiya qilingan bank	Muallif neobankni elektron xizmat ko'rsatish kanallari orqali xizmat ko'rsatadigan modernizatsiya qilingan kredit muassasasi deb biladi
----------------------	---	---

O'zbek iqtisodchi olimlardan biri A.Sh. To'rayevning fikricha, bankning raqamli xizmatlari va mahsulotlari tijorat banklari tomonidan hisoblash texnikasi va telekommunikatsiyalar yordamida ko'rsatiladigan xizmatlar majmuasini ifodalaydi [11].

Mazkur ilmiy yondashuvlarni umumlashtirgan holda xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini joriy etish va rivojlantirish mijozlar ehtiyojlariga mos, raqamli texnologiyalar asosida yaratiladigan va takomillashtiriladigan innovatsion moliyaviy xizmatlar majmuasini shakllantirishni talab etadi. Mobil ilovalar orqali hisoblarni boshqarish, raqamli hamyonlar, onlayn kreditlash, masofaviy identifikatsiya va avtomatlashtirilgan moliyaviy xizmatlarning keng joriy etilishi bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish hamda mamlakatda raqamli iqtisodiyot rivojiga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi vaqtda banklar infratuzilmasida Markaziy bankning buxgalteriya kliring tizimi orqali barcha shahar tashkilotlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi G'aznachiligiga byudjet to'lovlari, soliq va bojxona to'lovlari, notarius va FXDYO to'lovlari, ichki ishlar vazirligiga jarimalar to'lovlari, Davlat xizmatlari uchun to'lovlar, kadastr xizmatlari to'lovlari, shuningdek Internet-provayderlar va boshqa ko'plab xizmatlar uchun to'lovlar, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning billing tizimi orqali to'lovchini aniq aniqlab, real vaqt rejimida to'lovlarni amalga oshirish va aks ettirish mumkin. Markaziy bankning hisob-kitob kliring tizimi, shuningdek, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan chakana to'lov tizimlarining (Uzcard va Humo) bank kartalari bo'yicha operatsiyalari natijalari bo'yicha kliring amaliyotini amalga oshirish uchun “hisob-kitob banki” vazifasini bajaradi.

Shuningdek, Markaziy bankning hisob-kitob tizimi bilan integratsiyasi orqali real vaqtda to'lovlarni amalga oshirishni talab qiladigan idoralar va agentliklarning ko'payishi kuzatilmoqda. Bugungi kunga kelib, hisoblash kliring tizimi orqali jami 100 ga yaqin xizmatlar uchun to'lovlar real vaqt rejimida amalga oshirilib kelinmoqda.



1-rasm. Tijorat banklari tomonidan Markaziy bankning Hisob-kitoblar Kliring tizimi orqali qabul qilingan to'lovlar soni¹


Yuqoridagi 2-rasm ma'lumotlari tahlilidan ko'rinadiki, Markaziy bankning hisob-kitoblar Kliring tizimi orqali amalga oshirilayotgan to'lovlar soni va ularning summasi yildan yilga oshib bormoqda. Hisob-kitoblar Kliring tizimi orqali 2020-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda amalga oshirilgan to'lovlar soni 81 foizga oshgan. Bu juda sezilarli o'sish bo'lib, mamlakatda raqamli to'lov infratuzilmasining izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, eng yuqori o'sish 2023-yilda, ya'ni 34.8 foizni tashkil etgan bo'lib, bu davrda, elektron to'lov texnologiyalarining keng joriy etilishi, banklar o'rtasida internet-banking elektron operatsiyalarining ko'payishi, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi,

¹ <https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan elektron hisob-kitoblarga o'tish sur'atlari tezlashgani ta'sir ko'rsatganligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, tijorat banklari tomonidan Hisob-kitoblar Kliring tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlar sonining 2020-2024 - yillar davomida muntazam o'sib borishi, mamlakatda raqamli to'lov tizimlarining rivojlanayotganligini, iqtisodiyotda raqamli moliyaviy vositalarning ulushi kengayganini va banklar o'rtasidagi tranzaksion faollik takomillashib borayotganligida deb izohlashimiz lozim.




2-rasm. Mamlakatimiz bank tizimida 2020-2024-yillarda to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar to'g'risida ma'lumot²

Yuqoridagi 2-rasm ma'lumotlariga ko'ra 2020–2024 yillar oralig'ida to'lov terminallari orqali tushgan umumiy tushumlar hajmi 3,6 barobarga oshgan. Bunday sezilarli o'sish davlat va xususiy sektor tomonidan POS-terminallar sonining keng joriy etilishi, NFC, QR-kodlar va mobil ilovalar orqali amalga oshiriladigan to'lovlar hajmining ortishi hamda Ko'plab“Smart” savdo tizimlari orqali chakana savdo va xizmat ko'rsatish subyektlari kassalarni raqamlashtirganligidadir. To'lovlar soni va hajmining ortishi

² <https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

fuqarolar va biznes vakillarining raqamli to'lov vositalariga ishonch bildirayotganini ko'rsatadi. Bu tendensiya yashirin iqtisodiyotini qisqartirish, ya'ni rasmiylashtirilmagan aylanmalarni kamaytirishga xizmat qiladi. To'lov terminali orqali tushgan mablag'lar banklar hisob raqamlariga tushadi. Bu depozitlar bazasini kengaytiradi va banklar tomonidan raqamli kredit mahsulotlarini taklif qilish imkoniyatini oshiradi. Elektron to'lovlar orqali amalga oshirilgan savdo va xizmatlar hajmi ortishi bilan raqamli iqtisodiyotning ulushi YaIMda tobora ko'proq o'rin egallay boshladi.

Shuningdek, 2020-2024-yillar davomida raqamli to'lov texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar barqaror o'sib bordi. Bu o'sish nafaqat raqamli infratuzilmaning, balki moliyaviy inklyuzivlik, soliq yigiluvchanligi, iqtisodiy faollik va bank sektorining raqamli mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi bilan ham izohlanadi.



3-rasm. Mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni³

³ <https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

Yuqorida keltirib o'tilgan 3-rasm ma'lumotlariga asoslangan holda shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston banklarida muomalada bo'lgan bank plastik kartalari sonining yildan-yilga keskin ortib borayotganiga guvoh bo'lamiz. Bu o'sish mamlaktimiz tijorat banklarida raqamli bank mahsulotlarini yaratish va ulardan foydalanish samaradorligiga quyidagi jihatlarda ijobiy ta'siri ko'rsatmoqda.

Birinchidan, plastik kartalar sonining o'sishi aholi orasida raqamli to'lov vositalaridan foydalanish madaniyati shakllanayotganini bildiradi. Bu banklarni mobil ilovalar, onlayn banking, QR-to'lovlar, NFC texnologiyalari kabi mahsulotlarni joriy qilishga undaydi va ularni yanada takomillashtirishga zamin yaratadi.

Ikkinchidan, banklarni innovatsion va foydalanuvchilar ko'proq karta egalariga ega bo'lish istagi uchun qulay xizmatlarni taklif qilishga majbur qiladi. Xususan, bank ilovalari orqali tezkor karta ochish xizmati, keshbek va bonus tizimlari, Smart budgeting (xarajatlarni tahlil qilish) imkoniyatlari va boshqalar. Ushbu holat raqamli mahsulotlar sifatining oshishiga olib keladi.


Uchinchidan, millionlab karta tranzaksiyalari orqali banklar katta miqdorda foydalanuvchi xatti-harakatlari haqida ma'lumot to'playdi. Bu orqali mijozlar ehtiyojini aniqlash, moslashtirilgan kredit yoki omonat mahsulotlarini taklif qilish, risklarni aniqlash va firibgarlikni kamaytirish kabi imkoniyatlar kengayadi.

To'rtinchidan, raqamli mahsulotlar orqali banklar filiallarga bog'liq bo'lmasdan 24/7 xizmatlar (mobil banking, chatbotlar), onlayn to'lovlar va pul o'tkazmalari, elektron hujjatlar asosida masofadan turib hisob ochish kabi xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishadilar.

Beshinchidan, plastik kartalar orqali raqamli to'lovlar ko'payadi, bu esa, naqd pulga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi, pul oqimlarini aniq va kuzatib boriladigan qiladi hamda soliq tushumlarining oshishiga sabab bo'ladi.

Umuman olganda, o'tgan 2020-2024 yillarda plastik kartalar sonining deyarli ikki barobardan ko'proqqa oshgani O'zbekistondagi tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi tezlashayotganini, shuningdek, foydalanuvchilar ham raqamli bank

xizmatlariga tobora ko‘proq tayana boshlaganini ko‘rsatadi. Bugungi kunda mamlakatimiz tijorat banklari oddiy to‘lov qurilmalari (terminallar) o‘rniga ko‘proq ko‘p funksiyali qurilmalar (ATM va infokiosklar) o‘rnatmoqda. Bu shuni anglatadi-ki, banklar mijozlarga tez, qulay va zamonaviy raqamli xizmatlar ko‘rsatish uchun infratuzilmani shakllantirmoqda. (4-rasm)



4-rasm. Tijorat banklari tomonidan o‘rnatilgan to‘lov terminallari, bankomat va infokiosklar soni⁴

Bank tizimida ATM va infokiosklar orqali mobil ilovalarni yuklab olish va sozlashga yordam berish, kredit arizasi topshirish (infokiosk orqali), raqamli kartaga murojaat qilish, hisob ochish va shartnomani elektron imzolash mumkin. Shuningdek, bu qurilmalar raqamli mahsulotlarga yo‘l ochadi va ularni ommalashtiradi. Bu esa foydalanuvchilarning soni oshishiga olib keladi. Keltirilgan 2.7-rasm ma’lumotlariga asoslanib, 2020-2024 yillarda banklar eskirgan, cheklangan imkoniyatli terminallar sonini kamaytirib, ularning o‘rniga ko‘p funksiyali bankomat va infokiosklarni ko‘paytirganligi natijasida raqamli bank xizmatlarini keng joriy etish va mijozlarga zamonaviy, qulay

⁴ <https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem> sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi

xizmat ko'rsatish raqamli mahsulotlar yaratish osonlashtiradi, mijozlarning foydalanish darajasi oshadi, xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi yaxshilanadi.

Mamlakat tijorat banklari faoliyatida masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar sonining oshishi, banklarning raqamli xizmatlarni yaratish va takomillashtirishda muvaffaqiyatga erishayotganidan dalolat beradi. Bu o'sish bank mijozlarining mobil ilovalar, internet-banking, elektron to'lovlar va boshqa masofaviy xizmatlarga ishonchni va qiziqishni oshiradi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini joriy etish va rivojlantirish jarayoni jadal sur'atlarda amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, rivojlangan davlatlar bank tizimi bilan solishtirganda mazkur yo'nalishda hali to'liq shakllangan, barqaror va tizimli mexanizmlar mavjud emas. Xususan, bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish, elektron va mobil bank xizmatlarini tartibga soluvchi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarda raqamli bank xizmatlarining zamonaviy shakllari, ularni joriy etish va kengaytirish mexanizmlari yetarli darajada to'liq yoritilmagan.

Bundan tashqari, raqamli bank xizmatlarini joriy etish va rivojlantirishda mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlari, texnologik infratuzilmasi hamda aholining raqamli tayyorgarlik darajasini inobatga olish muhim hisoblanadi. Yuqori texnologiyalar va katta investitsiyalarni talab etuvchi ayrim raqamli bank xizmatlari (jumladan, video-banking va murakkab biometrik yechimlar) hozirgi bosqichda O'zbekiston tijorat banklari uchun iqtisodiy jihatdan yetarlicha samarali bo'lmasligi mumkin. Internet tarmog'i tezligi va hududlar kesimida raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanganligi bunday xizmatlarning ommaviy joriy etilishini cheklab turibdi.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishda aholining keng qatlamlari uchun qulay, iqtisodiy jihatdan maqbul va ommabop bo'lgan smartfonlar asosidagi mobil bank xizmatlarini ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Mobil ilovalar orqali amalga oshiriladigan raqamli to'lovlar, onlayn kreditlash, masofaviy identifikatsiya, depozit va shaxsiy moliyani

boshqarish xizmatlarini kengaytirish bank xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirish bilan birga, banklarning operatsion samaradorligini kuchaytiradi va xizmatlar tannarxini pasaytiradi.

Umuman olganda, O'zbekiston tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini joriy etish va ularni izchil rivojlantirish bank tizimining barqarorligini mustahkamlash, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish hamda bank xizmatlari bozorida sog'lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonni samarali amalga oshirish uchun raqamli bank xizmatlarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, banklar va mijozlar o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish hamda aholining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Global Internet Index. (2025). *World Digital Connectivity Report 2025*. Digital Intelligence Institute.
2. Electronic Banking Group Initiatives and White Papers. - Basel Committee for Banking Supervision. - Basel, October 2000. - 27 p.
3. <http://www.bis.org> - сайти маълумотлари асосида тайёрланган.
4. Ramayah, T., (2005). Course website usage among distance learning business students: the role of prior experience. *International Journal of Learning* 11, 1507–1517.
5. Devlin, J.F. (1995), «Technology and innovation in retail banking distribution», *International Journal of Bank Marketing*, Vol. 13 No. 4, pp. 19-25.
6. Спильниченко В.К. Трансформация банковских платежных систем в экономике России // *Экономический журнал*. 2012. № 2 (26).
7. Аксенов В.С., Обухов В.В. Электронный банкинг в системе банковских услуг. <https://cyberleninka.ru/article/n/elektronnyy-banking-v-sisteme-bankovskih-uslug.pdf>
8. Багаева А. П., Моисеенко А. А. Интернет-банкинг // *Актуальные проблемы авиации и космонавтики*. 2012. <https://cyberleninka.ru/article/n/internet-banking-1>

9. Джафарова, З. К. Развитие электронных банковских продуктов и услуг в банковской сфере // Финансовые инструменты регулирования социальноэкономического развития регионов: Сборник материалов V Всероссийской (национальной) научно-практической конференции, Махачкала, 2020. – С. 63-69.
10. Косарев В.Е. О цифровой эволюции банков в направлении необанков // Финансовые рынки и банки. 2020. №3. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-tsifrovoy-evolyutsii-bankov-v-napravleniineobankov>
11. A.Sh. To‘rayev. Tijorat banklarida raqamli bank mahsulotlarini yaratish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish. i.f.b.f., doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent 2025